PEDAGOGIK INNOVATSIYALAR, KASB-HUNAR TA'LIMI BOSHQARUV HAMDA PEDAGOG KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI

«TASDIQLAYMAN»
Pedagogik innovatsiyalar, kasb-hunar ta'limi boshqaruv hamda pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti direktori
Z.Ya.Xudayberdiev
«29» oktabr 2021 yil

«MA'QULLANDI»
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy Attestatsiya Komissiyasi raisi,
A.T. Yusupov
«29» oktabr 2021 yil

13.00.05- «Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi» ixtisosligi bo'yicha malakaviy imtihon

DASTURI

O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2021 yil «30» noyabr 309/4-sonli qarori bilan tasdiqlangan.

Toshkent- 2021

Ushbu dastur O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 fevraldagi PF-4958-son “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 22 maydagi 304-son «Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2016 yil 28 yanvardagi 220/2-son qarori bilan tasdiqlangan “Malakaviy imtihonlarni o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizom”ga muvofiq ishlab chiqilgan.

Dasturda 13.00.05 - Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi ixtisosligi fani bo‘yicha talabgorlarning nazariy va kasbiy tayyorgarligi darajasini, kasbiy ta’lim sohasining shakllanishi va rivojlanish tarixini, umumiy kontseptsiyalari va metodologiya masalalarini, manbalarini, mazkur bilimlar tarmog‘ining asosiy nazariy va amaliy muammolarini, mavjud materialni nechog‘lik bilishini aniqlab berishi, uning ilmiy adabiyoti, shu jumladan, chet el davriy nashrlarini hamda ilmiy tadqiqotlarning zamonaviy usullarini qanchalik egallaganlik darajasini aniqlash doirasida tuzilgan. Dasturda kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasiga oid asosiy vazifalar, didaktikaning asosiy printsiplari, sinfdan va maktabdan tashqari ishlarning ilmiy-metodologik asoslari, ta’lim tizimida o‘quv moddiy bazasiga qo‘yilgan talablar, kasbga yo‘naltirishning metodik asoslari va iqtisodiy muammolari haqidagi masalalar mazmuni keltirilgan.

Tuzuvchilar: p.f.d., prof. Sh.E.Qurbonov
p.f.n., prof. S.Yu.Ashurova

Taqrizchilar: p.f.d., prof. D.Dj. Sharipova
p.f.d., prof. N.A.Muslimov

Ushbu dastur institut Ilmiy kengashining 2021 yil “29” oktyabr dagi 9 -sonli qarori bilan tasdiqlangan.

Kirish

O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan “Uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish” vazifasidan kelib chiqqan holda mamlakatimizda kasbiy ta’limning xalqaro andozalarga mosligini ta’minlash borasida izchil ishlar amalga oshirilmoqda.

Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi pedagogika fanining mustaqil va murakkab sohasi bo‘lib, mamlakatimiz ta’lim tizimining barcha bosqichlarida kasbiy ta’lim mazmuni va metodikasini takomillashtirishning metodik asoslarini ishlab chiqishga oid muammolarni tadqiq etadi. Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi ixtisosligi doirasida fanlarni o‘qitish metodikasi va ixtisoslikka oid muammolarning maktabgacha ta’lim va tarbiya, umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim, professional ta’lim, oliy ta’lim, oliy ta’limdan keyingi ta’lim, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, maktabdan tashqari ta’limga oid pedagogik muammolar hal etilishi ko‘zda tutiladi. Kasb–hunar ta’limi nazariyasi va metodikasining rivojlanishi fan texnika, ishlab chiqarish texnologiyasi va iqtisodiyotning turli sohlari professional ta’lim muassasalarining xilma-xilligi kasbiy tayyorgarlikning ko‘p bosqichliligi bilan bog‘liqdir.

Kasb – hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi ixtisosligi professional ta’limini rivojlantirishning ilmiy pedagogik asoslarini ishlab chiqish, mehnat va hunar ta’limining izchilligi va uzviyligi muammolarini hal qilish, ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar talabi asosida kasbiy tayyorlashning yangi mezonlarini ishlab chiqish, qo‘shma va keng ixtisoslik kasblar va mutaxasisliklar bo‘yicha hunar ta’limi standartlarining metodalogik asoslarini yaratish, hunar ta’limi mazmuning yangi shakllari, vositalari va uslublarining didaktik asoslarini ishlab chiqish va rivojlantrish, jamyatimizning ijtimoiy iqtisodiy rivojlanish bosqichlari talablaridan kelib chiqayotgan ta’lim va tarbiya muammolariga tegishli bo‘lgan akademik litsiey va professional ta’lim muassasalarida o‘qitiladigan fanlardan o‘qitish jarayonini takomillashtirishga bag‘ishlangan ilmiy metodik izlanishlarni o‘z ichiga oladi.

13.00.05 - KASB-HUNAR TA'LIMI NAZARIYASI VA METODIKASI IXTISOSLIGI BO'YICHA MALAKAVIY IMTIHON DASTURI

Kasb-hunar ta'lim nazariyasi va metodikasi iqtisodiyotining turli sohalari uchun yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash, ta'lim mazmunini takomillashtirish sifatini oshirish, professional ta'limini rivojlantirish, kasbiy ta'lim o'quv muassasalari uchun pedagogik kadrlarni tayyorlash malakasini oshirish va qayta tayyorlash ularning kasbiy mahoratini oshirish zamonoviy pedagogik axborat texnologiyalarini hamda masofaviy ta'limni o'quv tarbiyaviy jarayonga qo'llash; kasblar va fanlar bo'yicha o'quv uslubiy ta'lim tizimini boshqarishining pedagogik iqtisodiy va tashkiliy asoslarini ishlab chiqish hamda bo'lajak mutaxassislarda kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarini shakllantirishning ilmiy-pedagogik asoslarini ishlab chiqadi.

Ixtisoslik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda quyidagi tadqiqot sohalari o'zlashtirilishi lozim;

- O'zbekiston Respublikasida kasbiy ta'limining shakllanishi, yo'lga qo'ylishi va rivojlanishini tadqiq qilish.
- Kasbiy standartlarini ishlab chiqish amaliyotga tatbiq qilishning nazariy-uslubiy asoslarini takomillashtirish.
- Ta'lim sifatini boshqarishni ilmiy asoslash va ta'lim monitoringini amalga oshirish.
- Professional ta'lim mazmuni va mutaxassislar tayyorlash sifatini aniqlashga yo'naltirilgan me'yoriy-uslubiy asoslarini yaratish, o'qitish vositalari, usullari, didaktik tamoyillarni takomillashtirish va asoslash.
- Professional ta'lim tizimida bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash samaradorligini baholashning ilmiy asoslari, mezonlari va usullarini o'quv-tarbiyaviy jarayonga qo'llash.
- Zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq qilish, o'quvchilarni milliy mustaqillik g'oyasi va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalashning samarali shakl va usllarini ishlab chiqish
- Professional ta'lim muassasalarida maxsus fanlar mazmuni va o'qitish uslubiyotini takomillashtirish.
- Pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning nazariy, uslubiy muammolarini asoslash.
- Professional ta'lim jarayonida o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishning nazariy-amaliy asoslarini ishlab chiqish.
- Professional ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiyaviy jarayonni pedagogik tashxislash.

- Professional ta'lim tizimida ta'lim sifatini baholash va ta'lim monitoringini amalga oshirish.
- Pedagog kadrlarni tayyorlash, malakasini oshirish va qayta tayyorlash jarayoniga yangi axborot, pedagogik texnologiyalarni qo'llash, masofaviy ta'limni amalga oshirishning ilmiy - uslubiy asoslarini ishlab chiqish.
- O'quv muassasalarida uslubiy ishlarni amalga oshirishni tashkillashtirish va amalga oshirish.
- Professional ta'lim tizimida yoshlarni kasbga, hunarga o'qitishning tashkiliy-pedagogik asoslari.
- Professional ta'lim tizimida pedagoglar mahoratini oshirish.
- Professional ta'lim muassasalari o'quvchilarida mustaqil ishlashni tashkillashtirishning pedagogik texnologiyalarini ishlab chiqish.
- Professional ta'limda o'quv-uslubiy, o'qitish vositalari majmualarini ishlab chiqish va tatbiq etishni nazariy - amaliy asoslash.
- Professional ta'lim muassasalarining tashkiliy va o'quv - uslubiy ta'minoti, ularda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilishning ilmiy-uslubiy asoslarini tadqiq qilish.
- Zamonaviy axborot texnologiyalari, o'qitish vositalari va o'quv jixozlaridan foydalanishning didaktik, metodik ergonomik va gigienik muammolarini ilmiy asoslash.
- Uzluksiz ta'lim sifatini ta'minlashga qaratilgan ilmiy-pedagogik tadqiqotlarni amalga oshirish.
- Xorijiy mamlakatlarda o'qituvchilar malakasini oshirish tajribalarini professional ta'lim tizimi kadrlari malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash jarayoniga tadbiq etish.
- professional ta'lim muassasalari o'quvchilarida ma'naviy-ma'rifiy, milliy qadriyatlar asosida kasbiy madaniyatni shakllantirish.
- O'quv muassasalarida mutaxassislar tayyorlashning samaradorligini baholash mezonlarini va usullarini taqqoslash.
- Professional ta'lim muassasalarida o'qitiladigan kasbiy ta'limga oid fanlar bo'yicha o'quv-uslubiy majmualarning ilmiy asoslarini ishlab chiqish.
- Mehnat va kasbiy ta'limining o'quv-uslubiy qo'llanmalar majmualari, moddiy - texnika negizini takomillashtirish va rivojlantirishni ilmiy - uslubiy asoslarini ishlab chiqish.

DASTUR MAZMUNI

1.Kasbiy ta'limini takomillashtirishga qaratilgan qonunlar, qarorlar, nizom, kontseptsiya va boshqa me'yoriy hujjatlar.

O'zbekiston Respublikasida kasbiy ta'limini takomillashtirishga qaratilgan qonunlar, qarorlar, nizom, kontseptsiya va boshqa me'yoriy hujjatlar, ularning mazmuni va mohiyati to'g'risida. Professional ta'limda maxsus o'quv predmetlari va ishlab chiqarish ta'limining o'zaro aloqadorligini ta'minlash haqida. Uzluksiz ta'limning mazmuni, mohiyati va uning tashkil etuvchi bo'g'inlari orasida professional ta'limining tutgan o'rni, vazifasi. Fan-texnika taraqqiyotining istiqbolli yo'nalishlari va ilg'or texnologiyalarning ilmiy asoslari.

2.Professional ta'limining maqsadi, mazmuni, tarkibiy qismlari.

Professional ta'limining maqsadi, mazmuni, tarkibiy qismlari va ularning o'zaro aloqadorligi. Kasbiy mahorat tushunchasining mohiyati. Professional ta'limda iqtisodiy va ekologik ta'lim masalalari. Professional ta'limini hozirgi davrdagi asosiy muammolari hamda rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlari. Kasb ta'limni tadqiq etish metodlari. Pedagogik tajribani o'rganish, umumlashtirish va ommalashtirish; kuzatish, pedagogik tajriba-sinovlarini o'tkazish (suhbat, interv yular); yozma so'rovnoma, ekspert baholash; mohiyati, maqsadi va vazifalari.

3.Amaliy va nazariy o'qitishning metodologik asoslari.

Amaliy va nazariy o'qitishning metodologik asoslari. Ishlab chiqarish ta'limi tamoyillari va metodlari. Mutaxassislarni ishlab chiqarish korxonalari qoshida tayyorlash va malakasini oshirish tizimning pog'onalari (pog'onali o'qitishning asoslari). Dual ta'lim asosida o'quv jarayoni va ishlab chiqarish amaliyotlarini olib borish. Professional ta'limda o'qituvchining tutgan o'rni, vazifalari va ularga qo'yilgan asosiy talablar. Professional ta'limda kasbiy ko'nikma va malakalarini shakllantirishga mo'ljallangan vositalar, moslamalar, uskunalarning qo'llanish hollari. Darslarning turlari, ko'rinishlari va tuzilishi. Zamonaviy va an'naviy darslarning o'ziga xos xususiyatlari va ularni takomillashtirish omillari. professional ta'lim o'qituvchisi va muhandis-pedagoglarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularni malakasini oshirish muammolari. Professional ta'lim muassasalarida o'quvchilarning kasbiy malakasini «WorldSkills» standartlari asosida baholash. Kasbiy ta'lim pedagogikasida o'qitish metodlarining asosiy muammolari. O'qitishda ko'rgazmalilik. Ko'rsatish va tushuntirishning birligi.

4.O'quv-uslubiy majmualarning tarkibiy qismlari, ularga qo'yilgan talablar.

Professional ta'limining o'quv-uslubiy majmualar bilan ta'minlanishi. O'quv-uslubiy majmualarning tarkibiy qismlari, ularga qo'yilgan talablar (kontseptsiya, standart, dastur, darslik va shu kabilarning mohiyati hamda imkoniyatlari). Professional ta'lim tizimi, uning o'ziga xos xususiyatlari amlga oshirish shart-sharoitlari, shakllari, vositalari va metodlari. Ishlab chiqarishda mehnatni rag'batlantirish shakl va vositalari. Ishlab chiqarilgan mahsulotning sifat va samaradorligini nazorat qilish mezonlari. Bir soatlik nazariy va amaliy dars rejasini tuzish, uni tahlil qilish.

5. Professional ta'limda o'qitish metodlari.

Professional ta'limda maxsus (mutaxassislikka oid) fanlarni o'qitish metodlari. Zamonaviy va an'naviy ta'limning mohiyati, ularga qo'yilgan talablar. Dasturiy o'quv materialni o'quvchilar o'zlashtirmasliklarining sabablari, ularni aniqlash va bartaraf etish yo'llari. Ishlab chiqarish ta'limining o'ziga xos xususiyatlari va uni amalga oshirish shart-sharoitlari. Mashq-ishlab chiqarish ta'limining asosiy metodlaridan biri ekanligi. Qo'shma, xususiy, kooperativ, kichik va shu kabi korxonalarda shartnoma asosida mehnatni tashkil etishning mohiyati. Professional ta'limi metodlari, o'quvchilarning mustaqilligi, qiziqtirish usullari va shu kabilarga ko'ra. Kasbiy standartlar mazmuni. Ishlab chiqarish ta'limida kirish, joriy va yakuniy yo'riqnomalarining: mohiyati va ularni o'zkazish metodikasi. O'quvchilarda mustaqil ishlash va o'z-o'zini nazorat qilish xislatlarini shakllantirish-tarbiya omili ekanligi. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash, baholash, usullari, vositalari hamda mezonlari. Og'zaki, yozma, test, reyting tizimidan foydalanishning afzallik hamda kamchiliklarini.

6.O'quv-tarbiyaviy jarayonni takomillashtirish masalalari.

O'quv-tarbiyaviy jarayonni takomillashtirish masalalari (istiqbolli mavzular rejalarini tuzish-o'quv jarayonini rejalashtirish, uslubiy ishlash va boshqalar). Xorijiy mamlakatlarning professional ta'limi bo'yicha tajribalari, ularning kamchilik va afzalliklari. Umummehnat ko'nikmalarini shakllantirish maqsadlari. Amaliy-laboratoriya mashg'ulotlari. Mehnat va hunar ta'limi izchilligini ta'minlashning ilmiy asoslari. O'quvchilarning mustaqil va ijodiy ishlarining maqsadi, mazmuni, ularni tashkil etish, o'tkazish shart-sharoitlari hamda muammolari. Hunar ta'limi pedagogikasi va metodikasi fanining predmeti, mazmuni, vazifalari. Pedagogika fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligi va ular orasida tutgan o'rni. Mehnat va professional ta'limida mktematik metodlar, yangi axborot texnologiyalarni qo'llash. Professional ta'limda metodik birlashmalar va pedagogik kengashlarning vazifasi,

imkoniyatlari hamda huquqlari. O'qitishda texnik vositalardan foydalanish. Texnik vositalarning turlari, tavsifi. Nazariy va ishlab chiqarish ta'limining o'zaro bog'liqligi. Professional ta'lim tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va ixtisosliklar tasniflagichi haqida. Uzluksiz ta'lim tizimi, mohiyati, vazifalari. Tarmoq standartlarini ishlab chiqish texnologiyasi. Professional ta'limda sifatni ta'minlash va boshqarish asoslari. Markaziy Osiyo mamlakatlarida yashab ijod etgan mutafakkirlar va ma'rifatparvar olimlarning kasbiy ta'lim haqidagi g'oyalari. O'zbekiston Respublikasida yashab ijod etgan va faoliyat ko'rsatayotgan yetakchi psixologlar, pedagoglar va metodist olimlar.

7.Professional (kasbiy) ta'limda matematik modellashtirish va matematik statistikaning fundamental masalalari va metodik ta'minoti.

Pedagogikada komp yuter va matematik moddallashtirish asoslari va uning o'ziga xosligi. Pedagogikada hisoblash eksperimentlarini shakllantirish va tashkil etish usulari. Pedagogikada matematik moddallashtirish va hisoblashda loyihalash usullari. Matematik modellashtirishning asosiy printsiplari va klassifikatsiyasi. Komp yuter diagnostikasi va imtiatsiyasining nazariy va amaliy asoslari. Ehtimollar nazariyasi. Statistikada tanlov usuli. Glivenok-Kantelli terremasi. Matematik moddellashtirishda statistik gipotezalarni tekshirish nazariyasi. Fisher kriteriyasi. St yudent kriteriyasi, xi-kvadrat $\chi 2$ kriteriyasi. Pedagogik statistikaning asosiy parametrlari. Professional ta'lim sohasida tajriba-sinov dasturi. Kasbiy pedagogikda tadqiqot usullari va ularni qo'llash tajribalari

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstituttsiyasi. -T.: O'zbekiston, 2011.
2. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrdagi O'RQ-637-sonli «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. www.lex.uz.
3. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 29 oktyabrdagi O'RQ-576-sonli «Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida» Qonuni. . www.lex.uz
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasining yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni G'G' O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – T.: 2017. – B. 39. www.lex.uz.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. www.lex.uz.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 fevraldagi "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4623-sonli Qarori
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 sentyabrdagi PF-5812 son "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni. www.lex.uz.
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 15 maydagi "O'zbekiston Respublikasida Kasbiy malakalar, bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish milliy tizimi faoliyatini tashkil etish choralari to'g'risida"gi 287-son qarori.
9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi 187-son qarori "Umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standarti".
10. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. - T.: O'zbekiston, 2016 y.
11. Mirziyoev Sh.M. Konstitutsiya va qonun ustuvorligi – huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining eng muhim mezonidir O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 27 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. 2019 yil 7 dekabr , https:G'G'president.uz
12. Abdiquddusov.O., Rashidov. H. Kasb-xunar ta'limi pedagogikasi. O'MKHTTKMO va UQT instituti, T. – 2009.
13. Abduxalikov T. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limida ta'lim sifati monitoringi. –T.: 2003. O'MKHTI rivojlantirish markazi. -115 b.
14. Abdushukurov A.A. Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika. Universitet, 2010 y., 169 b.
15. Avazov Sh., Muslimov N., Qosimov Sh. va b.q. Kasb-hunar kollejlarida amaliy kasbiy ta'lim metodikasi va texnologiyalari. –T.: Navro'z. 2014. –B. 299.
16. Bespal ko V.P. Slagaemie pedagogicheskoy texnologii. – M.: Pedagogika. 1989. 190 s.

17. Boltaboev S.A, Ismoilova M.M. Kasb ta'limi metodikasi fanidan kurs ishlari. (metodik qo'llanma). T.: Nizomiy nomli TDPU, 2001.

18. Fulomov S.S., Begalov B. Informatika va axborot texnologiyalari. Oliy o'quv yurti talabalari uchun darslikG'Akademik S.S. Fulomovning umumiy tahriri ostida.- T.: Fan, 2010.-704 b.

19. Ivchenko G.I., Medvedev Yu.I. Vvedenie v matematicheskuyu statistiku: Uchebnik. M.: Izdatel stvo LKI, 2010. —600 s.

20. Yo'ldoshev J.F. Malaka oshirish – ta'lim –tarbiya omili. –T: O'qituvchi, 1993 – 136 b.

21. Yo'ldoshev O'. Mehnatni muhofaza qilish G' darslik –T. 2005 y.-150 bet.

22. Kurbanov Sh.E., Seytxalilov E. Ta'lim sifatini boshqarish. –T.: "Turon-Iqbol", 2006. -592 b.

23. Muslimov N.A., Qo'ysinov O.A. Kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta'limni tashkil etish. (Metodik qo'llanma). T.: TDPU, 2006.

24. Muslimov N.A. Sostavlyayushie professionalizma budushego uchitelya trudovogo obucheniya J. Maktab va hayot. – 2003. -№3. –B.31-35.

25. Olimov Q.T., Abduqudusov O. va boshqalar. Kasb ta'limi uslubiyoti. T.: "Moliya" nashiriyoti, 2006.

26. Rashidov X., X.Xabib, yeldasheva G., Zakirov A. Kasbiy pedagogika. –T.: Fan va texnologiya, 2007, 199 b.

27. Tolipov O'.Q, Barakaev M, Sharipov Sh.S. Kasbiy pedagogika.-T, 2001.

28. To'raqulov X., Xasanboev J. va b.q. Ilmiy tadqiqot asoslari. –T.: Fan va texnologiya, 2011, 484 b.

29. Xodjabaev A.R., Xusanov I. Kasbiy ta'lim metodologiyasi. –T.: Fan va texnologiya, 2007, 192 b.

30. Hamidov J.A. Kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda o'qitishning zamonaviy didaktik vositalarini yaratish texnologiyasi G' Monografiya. – T., "Sano-standart" nashriyoti. 2017. – 160 b.

Elektron ta'lim resusrlari

1.http://www.istedod.uz
2.http://www.pedagog.uz
3. http://www.ziyonet.uz
4. http://www.tdpu.uz